ISNN:2181-1296

SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (156)
2026

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2026-yil, 2-son (156/2) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Siyosiy fanlar, O‘qitish metodikasi, Filologiya, Pedagogika, Sotsiologiya, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R.I.XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI: **H.A.XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

M.Q.Muhiddinov	-f.f.d., professor (SamDU)	B.E.Ergashev	-t.f.d., professor (SamDU)
Stefano Benazzi	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	S.A.Karimov	-f. f. d., professor (SamDU)
Simone Mantelini	-Bolonya universiteti professori (Italiya)	M.X.Lutfullayev	-p.f.d.. professor (SamDU)
Sh.Y.Ziyodov	-i.f.d. (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)	A.R.Samadov	-fal. f.d., professor (SamDU)
N.U.Arabov	-i.f.d., professor (SamDU)	Sh.A.Hasanov	-f.f.d., professor (SamDU)
Hiroaki Huziie	-Osaka universiteti professori (Yaponiya)	B.S.G‘oyibov	-t.f.d., (SamDU)
B.O.To‘rayev	-fal. f.d., professor (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-	G.B.Normurodova	-t.f.d., (SamDU)
A.B.Pardayev	-f. f.d., professor (SamDU)	F.Sh.Rashidova	-t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.Yusupova	-f.f.n., dotsent (SamDU)	D.Q.Usmonova	-i.f.n., dotsent (SamDU)
O.Qodirov	-p.f.n., dotsent (SamDU)	N.A.Isakova	-f.f.n., dotsent (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun- **5584**

M U N D A R I J A
C O N T E N T S

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
1	Samarqandning Temuriylar sulolasi davridagi evolyutsiyasi, uning sivilizatsiyalarga o‘zaro ta’siri va uyg‘unlashuvi **Keremu N.**	The evolution of samarkand during the timurid dynasty and the interaction and fusion of its civilizations **Keremu N.**	**5-11**
2	Nazar Eshonqulning “Bepoyon osmon” hikoyasida muallif uslubiga lingvopoetik jihatdan yondashuv **Safarova D.B.**	A Linguopoetic Approach to the Authorial Style in Nazar Eshonqul’s Short Story “Bepoyon osmon” (The Boundless Sky”) **Safarova D.B.**	**12-15**
3	Ingliz va o‘zbek tillarida neologizmlarning tasnifi va ularning til tizimidagi o‘rni **Pardayeva N.B.**	Classification of neologisms in english and uzbek languages and their role in the language system **Pardaeva N.B.**	**16-20**
4	O‘rta asrlarda sharq va g‘arbiy yevropa mamlakatlaridagi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmalarining qiyosiy tahlili **Abdullayev A.G.**	A comparative analysis of public administration and social structures in the countries of Eastern and Western Europe in the Middle Ages **Abdullaev A.G.**	**21-27**
5	Davlat ekologik ekspertizasi tizimining shakllanish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari **O‘tayev O‘. Ch.**	History of the formation of the state ecological expertise system and its development stages **Utaev U. Ch.**	**28-30**
6	Samkomstarisning Samarqanddagi arxeologik tadqiqotlari va muzey fondlari shakllanishiga qo‘shgan hissasi **Yunusov M.**	The contribution of samkomstaris to archaeological research in Samarkand and to the formation of museum collections **Yunusov M.**	**31-36**
7	7-9-sinf o‘quvchilarining stem kompetensiyalarini baholash: spetsifikatsiya, mezonlar va kpi indikatorlari **Aliyeva X.Sh.**	Assessment of Stem competencies of 7-9 grade students: specification, criteria and kpi indicators **Alieva Kh.Sh.**	**37-42**
8	Raqamli tibbiy ta’limda talabalarda profilaktik immun madaniyatni rivojlantirish texnologiyalari **Mirzakarimova D.B.**	Technologies for the development of preventive immune culture in digital medical education students **Mirzakarimova D.B.**	**43-49**
9	10-12 yoshli kurashchilarda egiluvchanlik sifatining kurash texnikasini o‘zlashtirish samaradorligiga ta’siri **Toshmurodov O.**	The effect of flexibility on the efficiency of kurash technique acquisition in 10–12-year-old kurash athletes **Toshmurodov O.**	**50-57**
10	Влияние государственной политики развития спорта (в контексте «нового Узбекистана») на мотивацию учащихся спортивных школ **Мадаминов Б.Ш.**	The influence of state policy on sports development (in the context of "New Uzbekistan") on the motivation of students in sports schools **Madaminov B.Sh.**	**58-62**
11	Трансформация и калькирование иронических фразеологических единиц в русском и узбекском языках **Тошбекова Д.И.**	Transformation and Calquing of Ironic Phraseological Units in Russian and Uzbek **Toshbekova D.I.**	**63-68**
12	Объективная и субъективная модальность в русском и узбекском языках **Усманова С.Ю.**	Objective and subjective modality in Russian and Uzbek languages **Usmanova S.Yu.**	**69-76**
13	Образ женщин в произведениях Ч. Айтматова **Хаитова Ф.С.**	The Image of Women in the Works of Ch. Aitmatov **Khaitova F.S.**	**77-81**
14	Voleybol murabbiylarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish afzalligi **Boltayev Z.B.**	The advantage of using modern pedagogical technologies in the process of training volleyball coaches **Boltaev Z.B.**	**82-87**

№	Maqola nomi	Article title	Bet/page
15	Bo‘lajak shifokorlarda klinik-diagnostik kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik modeli va raqamli ta’lim **Zokirov M.M.**	Pedagogical model for developing clinical-diagnostic competence in future physicians and digital educational technologies **Zokirov M.M.**	**88-93**
16	Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (tika)ning tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari hamda tashkiliy-siyosiy asoslari **Isadjanov B.I.**	The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations **Isadjanov B.I.**	**94-98**
17	Ingliz gazeta sarlavhalarining tarjima xususiyatlari: lingvostilistik tahlil **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	Translation features of English newspaper headlines: linguistic-stylistic analysis **Husanova Sh.Z., Isakova N.A.**	**99-103**
18	Boshlang‘ich sinflarda ona tilini o‘qitishda 4k modeli orqali fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	Developing thinking and creativity through the 4k model in teaching mother tongue in primary grades **Gadayev O.Y., Norkulova J.S.**	**104-108**
19	Raqamli demokratiya sharoitida legitimlik va fuqarolik faolligining konfiguratsiyasi **Muminjonova U.X.**	Configuration of legitimacy and citizenship in the digital democracy **Muminjonova U.X.**	**109-113**
20	Simulyatsion va raqamli ta’lim muhitida jarrohlik fanini o‘qitishda amaliy kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi **Abduvoxidov A.A.**	Technology for developing practical professional competencies in teaching surgery within a simulation-based and digital learning environment **Abduvoxidov A.A.**	**114-119**
21	Shoshilinch tibbiy yordamda travmatologik holatlarni sun’iy intellekt asosida erta triaj qilish va klinik qaror qabul qilish samaradorligini oshirish metodikasi **Xolmatov A.A.**	Methodology for improving the efficiency of early triage and clinical decision-making in traumatological conditions in emergency medical care based on artificial intelligence **Xolmatov A.A.**	**120-125**
22	Bo‘lajak shifokorlarda klinik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik raqamli texnologiyalari **Samatov Z.Z.**	Pedagogical digital technologies for developing clinical decision-making competence in future physicians **Samatov Z.Z.**	**126-130**
23	Yuqumli kasalliklar fanini o‘qitishda klinik-profilaktik fikrlash va epidemiologik xavflarni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Turdiyev M.N.**	Technology for developing clinical-preventive thinking and epidemiological risk management competencies in teaching infectious diseases **Turdiev M.N.**	**131-136**
24	Bo‘lajak shifokorlarga raqamli ta’lim muhitida anatomiya fanini o‘qitishninig zamonaviy texnologiyalari **Nishonova D.T.**	Modern technologies of teaching anatomy to future physicians in a digital educational environment **Nishonova D.T.**	**137-142**
25	Stomatologiya ta’limida valeologik madaniyatni rivojlantirishning integrativ va raqamli pedagogik texnologiyalari **Kamoliddinova I.Sh.**	Ntegrative and digital pedagogical technologies for developing valeological culture in dental education **Kamoliddinova I.Sh.**	**143-148**
26	Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarda mediasavodxonlik ko‘nikmalarini interfaol ta’lim texnologiyalari asosida takomillashtirish **Temirova Z.A.**	Improving students’ media literacy skills in a digital learning environment based on interactive educational technologies **Temirova Z.A.**	**149-154**
27	Tibbiy ta’lim muassasalari talabalarida klinik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasi **Kamalova D.A.**	Technology for developing clinical thinking competence among students of medical educational institutions **Kamalova D.A.**	**155-159**
28	Charlz Dikkensning ijodida idio-stilning rivojlanishi: lingvostilistika tahlili **Rahmatilloyeva R.S.**	The development of idio-style in charles dickens’s creative work: linguastylistic analysis **Rahmatilloeva R.S.**	**160-167**

UDK: 9(560):327 https://doi.org/10.59251/2181-3973.2025.v1.138.1.3916

TURKIYA HAMKORLIK VA MUVOFIQLASHTIRISH AGENTLIGI (TIKA)NING TASHKIL ETILISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI HAMDA TASHKILIY-SIYOSIY ASOSLARI

B.I.Isadjanov
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

B.I.Isadjanov
Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O‘zbekiston.

Kelib tushgan: 17.03.2026
Ko‘rib chiqildi: 30.03.2026
Qabul qilindi: 16.04.2026
Nashr qilindi: 30.05.2026

Nashriyotchi: Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligining shakllanishi, rivojlanish jarayoni tahlil etilgan. Maqolada mazkur agentlikning asosiy maqsadi, ustuvor vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, agentlikning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritilgan. Maqolada agentlikning Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston Respublikasiga ajratilgan grant loyihalari va ularning maqsadi statistik raqamlar kesimida tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar. Turkiya, TIKA, grant, loyiha, “yumshoq kuch”, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniya, fuqarolik jamiyati.

Этапы создания и развития Турецкого агентства по сотрудничеству и координации (TIKA), а также его организационные и политические основы

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования и развития Турецкого агентства по сотрудничеству и координации (ТИКА). В статье раскрываются основные цели и приоритеты этого агентства. Также рассматриваются организационные и правовые основы деятельности Агентства. В статье анализируются грантовые проекты Агентства, выделенные Республике Узбекистан и их цели на основе статистических данных.

Ключевые слова: Турция, ТИКА, грант, проект, «мягкая сила», международные организации, транснациональные компании, гражданское общество.

The Establishment and Development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA), as well as its Organizational and Political Foundations

Abstract. This article analyzes the formation and development of the Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA). It outlines the agency's main goals and priorities. It also examines the organizational and legal framework for the Agency's activities. The article analyzes the Agency's grant projects allocated to the Republic of Uzbekistan and their objectives based on statistical data.

Keywords: Turkey, TIKA, grant, project, soft power, international organizations, transnational companies, civil society.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro munosabatlar sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarilib, o‘zgacha mazmun mohiyat kasb etmoqda. Tashqi siyosatda yangi aktorlar paydo bo‘lishi bilan bir qatorda uning qonuniyatlari va strategiyalari o‘zgarib, takomillashib bormoqda. Globallashuv jarayoni mazkur tendensiyani kuchaytirib, davlatlar, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniya va birlashmalar oldiga zamonaviy vazifalarni yuklamoqda.

Ushbu jarayon davlatlar tomonidan olib borayotgan tashqi siyosat vositalarini o‘zgarishiga olib keldi. Endilikda nodavlat, notijorat tashkilotlar, agentliklar, xalqaro donor tashkilotlar, moliya tashkilotlarning o‘rni oshib borganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turkiya 1991-yilda mustaqillikka erishgan sobiq postsovet davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarni yo‘lga qo‘yishni boshladi. Natijada Turkiya Respublikasida ushbu davlatlar bilan turli sohalardagi loyihalarni moliyalashtirish va muvofiqlashtirish uchun tashkilot yaratishga zarurat paydo bo‘ldi. Shu maqsadda 1992-yilda TIKA (Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı'n (keyingi o‘rinlarda TIKA) tashkil etildi (*keyingi o‘rinlarda TIKA deb yoziladi)*[1]. O‘zbek tilidagi rasmiy nomi Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi deb nomlanib, mazkur agentlik nafaqat butun dunyoda, balki Markaziy Osiyo davlatlarida “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirib, mintaqada mamlakatning imidjini oshirish, davlat milliy manfaatlarini himoya qilish hamda yagona “turkiy millat” g‘oyasini shakllantirishga qaratilgan ishlarni olib bormoqda.

TIKAning shakllanish va rivojlanish jarayoni. Mazkur agentlik, bugungi kunda 60 dan ortiq davlatda 60+ koordinatsiya ofisiga ega hisoblanadi. Agentlikning asosiy maqsadi — Turkiya va hamkor mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy, madaniy, ta’lim, sog‘liqni saqlash va texnik hamkorlik sohalarida loyihalarni amalga oshirishadi[2].

Mazkur agentlik Turkiya tomonidan ushbu tashkilotning asosiy maqsadi etib quyidagilar belgilangan:

- turkiy mamlakatlar va jamiyatlar rivojlanishiga ko‘maklashish;
- turkiy davlatlar va jamiyatlar o‘rtasida iqtisodiy, savdo, texnik, ijtimoiy, madaniy va ta’lim sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish;
- umumiy madaniy, ijtimoiy meros va qadriyatlarni saqlashga qaratilgan loyiha va tadbirlarda ishtirok etish;
- Turkiyada ta’lim olish uchun ushbu mamlakatlarning hukumat a’zolariga stipendiyalar ajratish;
- davlatlarga texnik va gumanitar yordam ko‘rsatish;
- turli loyihalar va dasturlarni amalga oshirishda xalqaro agentliklar bilan hamkorlik qilish[3].

O‘z navbatida TIKAning tuzilish jihatdan rivojlanish tarixini 3 davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1) 1992-2000 yillar. Turkiya Respublikasi Vazirlar Kengashining 1992-yil 27-yanvar 480-sonli farmon bilan Tashqi ishlar vazirligi qoshida, “Turkiya hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasi” (Turkish Cooperation and Coordination Agency (TIKA)) tashkil etilgan. Dastlabki rasmiy nomi “Iqtisodiy, madaniy, ta’lim va texnik hamkorlik tashkiloti” bo‘lib, Tashqi ishlar vazirligida bo‘lim sifatida tashkil etilgan[4].

Agentlik tashkil topganidan keyin, 1993-yilda Qirg‘iziston va Turkmanistonda, 1994-yilda Ozarbayjon, O‘zbekiston, Moldova, Qozog‘istonda, 1995-yilga kelib Tojikistonda loyiha va dasturlarini amalga oshirishni boshlaydi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda maktablar, universitetlar, kutubxonalar qurish, talabalar va davlat amaldorlarini Turkiyada o‘qish uchun tipendiyalar bilan ta’minlash kabi ta’lim va ijtimoiy loyihalarga e’tibor qaratilgan.

Shuningdek, Agentlikni 1992-2001 yillardagi amalga oshirilgan 2 ming 240 ta loyihani o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, amalga oshirilgan ishlarning 25% ijtimoiy sohada, 58% texnik yordam ko‘rinishida va 17% moddiy obyektlarni ta’mirlash bilan bog‘liq loyihalar tashkil etadi[5]. Bundan tashqari, 2000-yildan boshlab TIKA tomonidan *turk tilini keng yoyishga qaratilgan* loyihani amalga oshirish boshlandi. Ushbu loyiha doirasida universitetlarda turkologiya kafedrasi, TIKAning dasturlarni muvofiqlashtirish idoralari qoshida turk tili kurslari ochilgan.

2) 2001-2018 yillar. 2001-yil 12-mayda *“Turk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasining tashkiliy vazifalari to‘g‘risidagi*” 4668-sonli qonunga ko‘ra, agentlik faoliyatini Turkiya *Bosh vazirlik qoshida* amalga oshirishi belgilangan[6]. Ushbu tashkiliy tuzilmadagi o‘zgarish agentlik hamkorlik olib boradigan davlat institutlari va xalqaro tashkilotlar darajasini yuqoriligidan kelib chiqib amalga oshirilgan[7]. Agentlik ushbu yillar davomida Yaqin Sharq, Afrika va Bolqon davlatlari bilan faoliyatini kengaytirish ishlari olib borildi. Natijada, dasturlarni muvofiqlashtirish idoralar soni 2001-yildagi 12 tadan 2019-yilga kelib 62 taga yetdi.1. Shu bilan birga ushbu yillar davomida TIKAning loyihalar uchun ijtimoiy-moddiy yordamlar paketini quyidagi diagirammada oshib borganini ko‘rish mumkin[8].



1-diagramma. TIKAning 2002-2018-yillarda ajratgan grantlari

Shuningdek, agentlik tomonidan 2001-2005-yillar davomida Kavkaz va Markaziy Osiyoda 664 ta, Bolqon va Sharqiy Yevropada 307 ta, Yaqin Sharq va Afrikada 85 ta, jami 1056 ta loyihalar amalga oshirilgan. Ushbu loyihalarning 593 tasi ijtimoiy infratuzilmalarni (*ta'lim, sog'liqni saqlash, suv ta'minoti va gigienasi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, mahalliy hokimliklar, uy-joy, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va boshqalar*) rivojlantirish uchun, 276 tasi madaniy hamkorlik yo'nalishida, 108 tasi ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, 79 tasi iqtisodiy infratuzilmani (*transport, energetika, bank-moliya, tadbirkorlik va boshqa tarmoqlar*) rivojlantirishga qaratilgan loyihalar hisoblanadi. Ushbu loyihalar davomida malaka oshirish kurslarida 3 ming 358 ta mutaxassis kadrlar tayyorlangan va 1 ming 480 tasi qayta malaka oshirgan, 2 ming 878 nafar talaba o'qitilgan[9].

TIKA 2006-2012 yillar davomida amalga oshirgan loyihalar hajmida yuqori o'sishni ko'rish mumkin. Birgina 2006-yilning o'zida amalga oshirilgan loyihalar o'tgan yilga nisbatan 158% ga oshib, 1 ming 452 tani tashkil etgan[10]. Ushbu loyiha va dasturlarni tarmoqlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish 51%, iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish 24%, madaniy hamkorlik 13,5%, ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish 12,5% ni tashkil etganini ko'rish mumkin. Agentlik tomonidan loyiha va dasturlarni amalga oshirayotgan davlatlar 2007-yilga kelib 86 taga yetgan. Xususan, Afg'onistonda "*Afg'onistonni qayta tiklash dasturi*" doirasida mamlakatning 11 viloyatida 13 ta maktab qurilishi boshlangan *(2011-yilda yakunlangan)*, shifoxona qurish va faoliyatini tashkil etish, elchixonalarni ma'muriy, ijtimoiy va institutsional qo'llab-quvvatlash, turk kurslarini tashkil etish ishlarini amalga oshirgan[11].

2009-yildan boshlab nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyat va davlat o'rtasidagi hamkorligini oshirish va NNT faoliyatining institutsional asosga ega bo'lishini ta'minlash maqsadida *"Fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlik va muvofiqlashtirish bo'limi"*ni tashkil etgan. 2009-yilning o'zida Turkiya NNTlari bilan hamkorlikda ushbu yilda 23 ta loyiha, 2010-yilda 50 ta NNTlar bilan 100 dan ortiq loyihalarni amalga oshirgan[12].

3) 2018 – y.h.v. Turkiya Prezidentining 2018-yil 15-iyuldagi "Vazirliklar va boshqa tashkilotlarga qarashli bo'lgan muassasalarni tashkil etish to'g'risida"gi 703-sonli qaroriga ko'ra TIKA faoliyatini *Madaniyat va turizm vazirligi tizimida amalga oshirishi belgilangan*[13].

Agentlik loyiha va dasturlar uchun ajratilgan mablag' 2018-yilda 8,612 mlrd dollar, 2019-yilda 8,666 mlrd dollar, 2020-yil 8,123 mlrd dollar, 2021-yilda 7,6 mlrd dollarni hamda dasturlarni muvofiqlashtirish idoralar soni 63 tani tashkil etganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, agentlik tomonidan 2018-yildan *"Hayot va oziq-ovqat xavfsizligini qo'llab-quvvatlash"* va *"Odamlar uchun birinchi suv"* dasturi amalga oshira boshlagan. 5. Dastur doirasida, hududida oziq-ovqat va gumanitar faoliyat bilan bog'liq muammolarga duch kelgan Pokiston, Gvineya, Namibiya, Bangladesh, Afg'oniston, Efiopiya, Somali va Keniya kabi 16 ta davlatlarga oziq-ovqat yordami loyihasidan 154 ming 290 kishi foydalangan. Anentlik ushbu loyihani 2019-yilda ham davom ettirib, Iroq, Kolumbiya va Afg'onistonda favqulodda va gumanitar yordam doirasida 21 loyihani amalga oshirgan[14]. Shu bilan birga, TIKA ta'lim sohasida 346 ta loyihani amalga oshirgan. Xususan, *"Maktab binolarini ta'mirlash", "Robototexnika kodlash ustaxonasi qurish", "Kasb-hunar va texnik ta'limda murabbiylar tayyorlash dasturi", "Kasbiy ta'lim va bandlikni oshirish dasturi", "Ta'lim va ta'limdagi kadrlar salohiyatni oshirish"* dastur va loyihalar orqali 2019-yilning o'zida 100 mingdan ortiq o'quvchilar qamrab olingan[15].

Shuningdek, agentlik 2019-yilda sog'liqni saqlash sohasida 142 ta loyihani amalga oshirgan. Jumladan, "*Sog'liqni saqlash sohasida imkoniyatlarni rivojlantirish dasturi*", *"Ona-bola salomatligini mustahkamlash"*, "*Sog'lom qishloqlar", "Salomatlik skrining mobil klinikasi", "Sog'liqni saqlash sohasida inson resurslarini yaxshilash", "Salomatlik oyligi", "Covid-19 bilan kurashish usullari" masofaviy ta'lim* dastur va loyihalarda 900 mingga yaqin bemor ishtirok etganini ko'rish mumkin.

Xususan, *"Covid-19 bilan kurashish usullari" masofaviy ta'lim* dastur va *"Covid-19 ga qarshi kurash"* loyihasi doirasida 2020-yilda 100 dan ortiq davlatga 11,9 mln. dollarlik himoya vositalari va respiratorlar taqdim etilgan. 3. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, TIKA turkiy tilli davlatlarda Turkiya tashqi siyosatini muvofiqlashturuvchi institut sifatida tashkil etilgan.

TIKA faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari. "TIKA" faoliyatini huquqiy tartibga solish Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, Turkiya Respublikasi Prezidenti va Hukumatining normativ-huquqiy hujjatlari, ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar, Tashqi ishlar vazirligining normativ-huquqiy hujjatlari shuningdek, "TIKA" nizomi doirasida amalga oshiriladi. Agentlik Turkiya Vazirlar Kengashining 1992-yil 27-yanvar 480-sonli farmon bilan "*Iqtisodiy, madaniy, ta'lim va texnik hamkorlik tashkiloti*" sifatida Tashqi ishlar vazirligi qoshida tashkil etilgan. Ushbu farmon 1992-yildan 2001-yilgacha agentlik faoliyatining huquqiy asosini tashkil etgan. Mazkur Farmonning 1-moddasida agentlikni tashkil etishdan maqsadi quyidagicha ifodalangan: "Rivojlanayotgan mamlakatlar, ayniqsa, turk tilida so'zlashadigan respublikalar va Turkiyaga qo'shni mamlakatlarning rivojlanishiga ko'maklashish, bu davlatlar bilan iqtisodiy, savdo, texnik, ijtimoiy, madaniy va ta'lim sohalarida loyihalar va dasturlar orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarga beriladigan yordam bilan bog'liq tartib-qoidalarni amalga oshirish. Tashqi ishlar vazirligiga qarashli va yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan iqtisodiy, madaniy, ta'lim va texnik hamkorlik bo'yicha raislikni tashkil etish va uning vazifalari bilan bog'liq tamoyillarni tartibga soladi", – deb ta'kidlanadi.

Agentlikni tashkil etish, ustuvor yo'nalishlarini belgilash va amalga oshiriladigan loyihalarni aniqlash Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan amalga oshirilgan. Kengash tarkibini agentlik, tashqi ishlar, sanoat va savdo, energetika va tabiiy resurslar, madaniyat vazirliklari, g'aznachilik va tashqi savdo, davlat rejalashtirish tashkiloti maslahatchilari, din ishlari bo'yicha vakil, birja vakillari tashkil etadi. 3.Agentlik prezidenti hukumatning tashqi siyosati, hamkorlik dasturlaridan kelib chiqib tashkilot faoliyatini tashkil etishi, agentlik bo'linmalariga rahbarlik qilishi va Tashqi ishlar vazirligi oldida javobgarligi belgilab qo'yilgan.

Turkiya Respublikasida 2017-yil 16-aprelda bo'lib o'tgan referendum natijalariga ko'ra, Prezident ham davlat, ham hukumat boshlig'i deb e'lon qilindi. 2. Bu o'z navbatida agentlik faoliyatida o'zgarishlarga olib keldi.

Xususan, Turkiya Prezidentining 2018-yil 15-iyuldagi "Vazirliklar va boshqa muassasa va tashkilotlarga qarashli bo'lgan muassasa va tashkilotlarni tashkil etish to'g'risida"gi 703-sonli qarorining "Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi" deb nomlangan 37-bo'lim 521-moddasiga ko'ra "Agentlik yuridik shaxs, xususiy budjetga ega, deb ta'riflangan va o'z faoliyatini Madaniyat va turizm vazirligi tizimida amalga oshirishi belgilangan".

Umuman olganda shuni aytish mumkinki, Turkiya postsovet davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy sohalarda turli hamkorlik loyihalarni amalga oshirish maqsadida TIKAni tashkil etgan.

Bundan tashqari, agentlikning tashkil topishiga huquqiy asos 1992-yil 27-yanvar "Turkiya hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasini tashkil etish to'g'risidagi" 480-sonli farmon, 2001-yil 12-mayda "Turk hamkorlik va taraqqiyot boshqarmasining tashkiliy vazifalari to'g'risidagi" 4668-sonli qonuni, 2011-yil 2-noyabrda "Turk hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligining tashkiliy tuzilshi va vazifalari to'g'risidagi" 656-sonli qonun, 2018-yil 15-iyuldagi "Vazirliklar va boshqa muassasa va tashkilotlarga qarashli bo'lgan muassasa va tashkilotlarni tashkil etish to'g'risidagi" qonunlari asos bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston Respublikasi va Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi munosabatlari. Shuningdek, ta'kidlash joizki, TIKA Turkiyaning so'nggi yillardagi tashqi siyosatida muhim rol o'ynamoqda. Agentlik faoliyatining dastlabki bosqichida asosiy e'tiborni turkiy tilli davlatlarda Turkiyaning imidjini oshirishga harakat qilingan bo'lsa, keyingi bosqichida tashkilot faoliyat doirasi kengaytirilib Afrika qit'asiga ham kirib borilgan. O'zbekston Respublikasi bilan ham TIKA o'rtasidagi aloqalar borgan sari rivojlanib bormoqda.

Agentlik dastlab, 1993-yilda faoliyatini boshlab, O'zbekiston va Turkiya hukumatlari o'rtasida imzolangan "Hamkorlik shartnomasi" doirasida 1994-yilning 20-may kuni Toshkentda vakolatxonasini ochgan. TIKA tomonidan 1993-2021 yillar mobaynida mamlakatimizda jami 54 mln. dollardan ortiq 900 ga yaqin loyiha va dasturlar amalga oshirgan[16] ligini aytishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2017-yilning 19-dekabrida Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi prezidenti Serdar Chamni qabul qilib, uchrashuvda turkiyalik hamkorlar bilan birgalikda savdo, sanoat, investitsiya, transport, turizm, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqa sohalarda istiqbolli dastur va loyihalar amalga oshirilayotgani ijobiy baholagan edi. O'zbekistonda agentlik tomonidan shu kungacha 23,6 million dollar miqdoridagi 700 ga yaqin grant loyihalari amalga oshirilgan. Mazkur uchrashuv yakunida ikki tomonlama hamkorlikning istiqbolli

yo‘nalishlarini belgilab olish, bu borada agentlikning O‘zbekistondagi faoliyatini aniq loyihalar asosida va tizimli ravishda rivojlantirish zarurligi alohida ta’kidlanishi ham bejiz emas edi. Qolaversa, Turkiya hukumati O‘zbekistonda amalga oshirayotgan faol tashqi siyosatida TIKAning o‘rniga alohida e’tibor qaratmoqda. Shundan kelib chiqib, agentlik O‘zbekistonda amalga oshirayotgan loyiha va dasturlari orqali davlat boshqaruvi, ijtimoiy va iqtisodiy yo‘nalishlarda ko‘proq e’tibor berib, o‘zining tajribalarini ommalashtirishga alohida urg‘u bermoqda.

Xulosa. Bugungi kunga kelib O‘zbekiston tomonidan olib borilayotgan ochiq, pragmatik tashqi siyosat Turkiya bilan do‘stona munosabatlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ikki davlat o‘rtasidagi aloqalar savdo, sanoat, investitsiya va gumanitar sohalardagi hamkorlik bilan yanada mustahkamlanmoqda. Jumladan, Turkiya hukumati TIKAning mamlakatimizdagi loyiha va dasturlariga alohida e’tibor qaratmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonda TIKA loyiha va dasturlari orqali sog‘liqni saqlash tizimida zamonaviy tibbiyot jihozlaridan foydalanish, qishloq xo‘jaligi tizimlarini isloh qilish, kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish, turli soha mutaxassislarining malakalarini oshirish, xalqaro anjuman va seminarlar tashkil etishda texnikaviy imkoniyatlarni yaxshilashga qaratilgan loyiha va dasturlarni amalga oshirishi foydali hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. TIKA About us. https://www.tika.gov.tr/tr/sayfa/tarihce-222.
2. https://gov.uz/uz/imv/news/view/95151.
3. TIKA's Establishment Purpose and Duties https://www.neoldu.com/tikanin-kurulus-amaci-ve-gorevleri- 2901h.htm.
4. Sayılı Ekonomik, Kültürel, Eğitim ve Teknik İşbirliği Başkanlığı Kurulması, 206 Sayılı Kanun Hükmünde Kararnamenin İki Maddesinin Değiştirilmesi ve 190 Sayılı Kanun Hükmünde Kararnamenin Eki Cetvellere Bir İlave Yapılması Hakkında Kanun Hükmünde Kararname, (1992, 27 Ocak), *Resmi Gazete*, (Sayı: 21124), http://mevzuat.kararara.com/mvzt/mvzt3/mvzt1211.html.
5. Faaliyet Raporu 2017, (Ankara: Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı Başkanlığı, 2018), 26. http://www.tika.gov.tr/upload/2018/2017%20Faaliyet%20Raporu/T%C4%B0KA%20Faaliyet%20Ra poru% 202017.pdf.
6. Sayılı Türk İşbirliği ve Kalkınma İdaresi Başkanlığının Teşkilât ve Görevleri Hakkında Kanun(Ekonomik, Kültürel, Eğitim ve Teknik İşbirliği Başkanlığı Kurulması, 206 Sayılı Kanun Hükmünde Kararnamenin İki Maddesinin Değiştirilmesi ve 190 Sayılı Kanun Hükmünde Kararnamenin Eki Cetvellere Bir İlave Yapılması Hakkında 480 Sayılı Kanun Hükmünde Kararnamenin Değiştirilerek Kabulü İle Devlet Memurları Kanununda Değişiklik Yapılmasına Dair Kanun), (2001, 12 Mayıs), *Resmi Gazete*, (Sayı: 24400), https://www.tbmm.gov.tr/kanunlar/k4668.html.
7. Uluslararasi kamu kurumu olarak TIKA teşkilati ve alternatif modeller. Mehmet Ali Yetiş Danişman prof. dr. hamza ateş (eylül 2019) https://acikbilim.yok.gov.tr/bitstream/handle/20.500.12812/116490/yok cikBilim_10268824.pdf?sequence=-1&isAllowed=y.
8. Turkish development assistance report. 2019 https://www.tika.gov.tr/upload/sayfa/publication/2019/ TurkiyeKalkinma2019WebENG.pdf.
9. Strategic cooperation of public and civil society organizations in international relations: TIKA activities analysis. 20.11.2021. https://www.acarindex.com/oguzhan-sosyal-bilimler-dergisi/uluslararasi-iliskilerdekamu-ve-sivil-toplum-kuruluslarinin-stratejik-isbirligi-tika-faaliyetleri-analizi-1169963.
10. TİKA, (2006). Faaliyet Raporu 2006 Ankara, (14-17 б) http://www.tika.gov.tr/tr.
11. TİKA,(2007) Faaliyet Raporu 2007, Ankara (18 б.) http://www.tika.gov.tr/tr.
12. TİKA, (2010). Faaliyet Raporu 2010, Ankara (70 б.) http://www.tika.gov.tr/tr.
13. “Bakanliklara bağli, ilgili, ilişkili kurum ve kuruluşlar ile diğer kurum ve kuruluşlarin teşkilati hakkinda cumhurbaşkanliği kararnamesi” 15/07/2018-30479 https://www.mevzuat.gov.tr/mevzuatmetin /19.5.4.pdf.
14. TİKA, (2019a). Faaliyet Raporu 2019, Ankara (75-80) б.
15. TIKA Training Programs Reach Thousands of People https://www.tika.gov.tr/tr/haber/tika_egitim_ programlari_binlerce_insana_ulasiyor-41560.
16. Özbekistan tika projeleri tanitim kitapçiği https://www.tika.gov.tr /upload/2021/%C3%96zbekistan%20Bro%C5%9F%C3%BCr/Ozbekistan.pdf.

SAMARQAND UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir **Sh.Xoliqulov**

Muharrirlar:

I.Sulaymonov - fil.f.d., dotsent
E.Arziqulov - f.-m.f.d., dotsent
O.Yusupova - fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrir:

A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 240-38-47, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:
axborotnoma.uz
SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga 30.05.2026-yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00
Buyurtma raqami 845 Adadi 30 nusxa.

ISSN 2181-1296